

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11.2022

**научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma’mun akademiyasi),
ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O’tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ALEUOV Userbay, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarkbek, tarix fanlari doktori (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IBRAGIMOV Zair, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OLLAMOV Yarash, yuriduk fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muhabbat, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rimbosari, (UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 11(185)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

Гөжес – қорақалпоқ халқининг миллий таомларидан бири. Дон келида туйилиб, қовузидан айрилиб, сувга пиширилган ҳолатда гўжага айланади. Буларнинг жўёри гөжес, тары гөжес, арпа гөжес, мәши гөжес, лобия гөжес, гурии гөжес каби турлари мавжуд. Гўжа кўп ҳолатда сут, қатик, айрон ва тўроқ билан тортилади. Хусусиятига қараб, мош, ловия ва гуруч, ёғ билан доғлаб пиширилиши мумкин. Агар дон тегирмонда ёрилса, ёрмага айланади. Жарма ҳам қорақалпоқларнинг энг машҳур миллий таомларидан саналади. Жарма, кўпинча, жўхоридан ишланади. Бу таомга ҳам сут, қатик, айрон аралаштирлади.

*Мәшаба – мошни сувга қайнатиб, сут, қатик ва ёғ доғлаб пишириладиган овқат, таом. Икки табак мәшабаны дәс соктың фой.*¹

Қўйырмаси – жўхори, буғдой, макка ва бошқа донларини қозонга солиб қовуришдан пайдо бўлган овқат, таом. Бу қорақалпоқ халқининг қадим даврдан буён келаётган таомларидан бири хибобланади. Масалан, – Ҳә, апа, көп сөзди қой, балана аз фана қўйырмаси бер, – деди.²

Сөк – тариқни қайнатиб, қовуриб, капагидан ажратиб олинган дони. Унинг ўзини шу ҳолида ейиш мумкин, йўқса, сутга солиб қайнатиб ёки қатикқа қўшиб ичилади. Сарик ёғ аралаштириб ишланган тури эса тўйларда миллий таом сифатида кўлланилади.

*Сол ўақлары болганда
Атшабар бала тап болды
Атшабарга Гулайым
Ҳасыл кийим кийгизди
Сейиси өз атының
Бир дорба майсөк жегизди.³*

Булардан ташқари, қорақалпоқ халқида *сықпан*, *жер кәбап*, *туўрама гўртик*, *бөрек* (тухумдан қилинади), *палаў*, *май сөк* (гўдак туғилганда етказсин сифатида берилган), *тақан*, *иижсан*, *қадуян қақ*; ичимликлардан: *қатық*, *айран*, *май*, *ишимшик*, *қымыз*, *шубат*, *шай*; нон маҳсулотларидан: *шөрек*, *пәтир* (ачитки солинмаган нон), *қатлама* (ичига ёғ, тухум солиниб, сутга қорилади), *гульше*, *қатлама нан* (қозонда қотирилган, буғдой, макка, арпа унидан тайёрланган), *загара* (уннинг тариқ ва жўхоридан ишланган турлари мавжуд) ва х.к. озиқ-овқат ва ичимликларни билдирувчи этнографизмларни учратамиз.

Умуман айтганда, этнографик лексик семантик жиҳатдан кенг тушунча. Унда моддий маданиятнинг миллий хусусиятлари, миллий-этник характердаги хусусиятларни ўз ичига қамраб олади. Этнографик лексикани лексик-семантик гурухлар бўйича ўрганганда, халқнинг яшаш тарзи, уларнинг ишончи, унинг хўжалик юритиши, асосий касб-кори, психологиясини билиб олиш мумкин. Яъни, этнографик лексик семантик жиҳатдан қараганда жуда мураккаб саналади. Этнография ўзига моддий маданиятнинг миллий хусусиятлари билан миллий, этник характерни ўзида жамлаган.

Muydinova Arofatoy Urinovna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi; amuydinova73@gmail.com)

MUVASHSHAHNING TARIXIY ILDIZLARIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiyotida muvashshah qilingan she’riy asarlar genezisi, tarixi, shakllanishi haqida mulohaza yuritgan olimlar tadqiqotlari o‘rganilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan fors-tojik tilidagi muvashshah haqida mulohaza bildirilgan.

Аннотация. В статье рассматривается генезис успешных поэтических произведений в узбекской литературе, в частности история и становление этого вида искусства, исследования ученых, сделаны научно-теоретические выводы. Был также комментарий к персидско-таджикскому мувашишаху, посвященному Алишеру Навои.

Annotation. The article examines the genesis of successful poetic works in Uzbek literature, in particular the history and formation of this type of art, the research of scientists, scientific-theoretical conc-

¹ Қарақалпақ тилинин түснандирме сөзлиги. III том, Нөкис, «Қарақалпақстан», 1988, 292-бет.

² «Алпамыс» дәстаны. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2007, 264-бет.

³ «Қырық қызы» дәстаны. Нөкис, «Илим», 2010, 56-бет.

lusions were made. There was also a comment on the Persian-Tajik muwashshah dedicated to Alisher Navoi.

Kalit so‘zlar: she‘r, shoir, bayt, she‘riy san‘at, muwashshah, tavshih, g‘azal, qit‘a, muxammas, tasmin.

Ключевые слова: поэтическое искусство, мұвашишах, рубои, газель, континент, мухаммас, тасмин.

Key words: poetic art, muwashshah, ruboi, gazelle, continent, muhammas, tasmin.

Muvashshah arabcha *bezamoq*, *ziynatlamoq* ma’nolarini ifodalaydi. Muvashshah mumtoz she’riyatda g‘azal, qit‘a, muxammas, murabba’, ruboi kabi turli janrlarda yaratilgani ma’lum. Muvashshah – she’rning har bir misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan biror narsa yoki kishining nomi kelib chiqadi. Ayrim muvashshahlarda ism misralar tarkibidagi so‘zlar orasiga yashiringan bo‘ladi. Bunday holda muvashshah muammo usulida yechiladi.

Zamirida biror narsa nomining yashirinishi jihatidan muvashshah chiston va muammo, hatto ta’rixga o‘xshab ketadi. Ammo, ayni chog‘da, ularni bir-biridan ajratib turadigan farqlar ham yo‘q emas: ta’rixda biror voqeа yuz bergen muhim sana ifodalansa, chistonda biror predmet yoxud voqeа topishmoq usulida beriladi, muvashshahda esa, asosan, shaxslar yoxud predmetlar nomi yashirinadi. Muvashshahlar, odatda, aruzning muayyan vaznlarida yoziladi, biroq keyingi davrlarda yozilayotgan muvashshahlarning bir qismi aruzda yozilgan bo‘lsa, barmoq vaznida yozilganlari ham uchraydi. Muvashshahlar faqat shakl hodisasigina emas, balki muallifning ijtimoiy hayotga qarashlarini ifodalovchi muhim san‘at hodisasidir.¹

Muvashshahning o‘ziga xos xususiyatlari, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgani jihatidan Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, To‘xta Boboyev, Qo‘ldosh Pardayev singari olim-larning bu mavzuga oid tadqiqotlari ahamiyatlidir. Jumladan, muvashshah xususida akademik Aziz Qayumov quyidagicha fikr bildirgan: “Muvashshah – g‘azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko‘proq sharq adabiyotiga xos an‘anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi”.² Haqiqatan ham, muvashshah shoirdan juda katta mahorat talab qiladigan nozik san‘at, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan ism misra yoki baytni ma’lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra yoki baytni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqariladigan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi. Shunday ekan, muvashshah yuksak mahorat va did bilan qo‘llansagina, she’rga zeb bo‘ladi, aks holda, u she’rning badiiy saviyasini tushirib yuborishi ham mumkin.³

Muvashshah haqida XV asrdayoq olimlar tomonidan mulohazalar bildirilgan. Xususan, turkiy adabiyotning ulkan shoiri va allomasi Shayx Ahmad Taroziy o‘zining “Funun ul-balogs‘a” asarida muvashshahni maxsus san‘at sifatida tilga oladi va shunday ta’riflaydi: “...she’rning avvalg‘i harflarini terib olsalar yo o‘rtadagi harflarini olib jam qilsalar... (ism paydo) bo‘lur. She’rning bir misrasi harflarida ham ism muzayyan bo‘lishi mumkin”.⁴

Muvashshahga doir ma’lumotlar bilan tanishar ekanmiz, adabiyotlarda *tavshih* san‘ati qo‘llangan she’rlarga nisbatan muvashshah deb yuritishi e’tiborimizni tortdi. Xususan, XV asrda yashab ijod etgan shoir va olim Atoulloh Husayniy o‘zining “Ba‘doyi’ us-sanoyi” asarida shunday yozadi: “Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratturkим, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o‘rtasida bir necha harf yoki bir necha so‘z keltirurkim, ul harf yoki so‘zlarni jam’ qilinsa, bir ism yo bir laqab yo bir misra yo bir bayt bo‘lur yoki anga o‘xhash bir nima hosil bo‘lur va bu san‘atni o‘z ichiga olg‘an she’rni muvashshah derlar...”.⁵ Olim bunga misol qilib Alisher Navoiyga bag‘ishlangan fors-tojik tilidagi quyidagi qit‘ani keltiradi:

Izzat-u davlat, *ilohiy*, bod bo fath-u zafar,

Shahriyor-i mulk-i donishro *hamesha* beshumor!

(Illohim, ilm mulkinining shahriyoriga hamisha hisobsiz fath-u zafar bilan izzat-u davlat kelsin).

Lutf kun dar zill-i shah, yo rab, *bidorash* to magar

Yobad oromish *ba izzu* adl-i eshon ro‘zgor.

(Yo rab, lutf qil, uni shoh soyasida saqla, toki ularning qudrat-u adlidan zamona tinch bo‘lsin!)

Yo rab, ehson kun *ba fazilat* davlat-i uqbo, ki o‘

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2002, 404-bet.

² Qayumov A. She‘riyat jilolari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997, 45-bet.

³ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., “Akademnashr”, 2010, 298-bet.

⁴ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. Toshkent, “Xazina”, 1996, 125-bet.

⁵ Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi’. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981, 85-bet.

Rasm-i ehson kard dar dunyo *ba davlat* oshkor.

(Yo rab, fazling bilan unga oxirat davlatini ehson qil, chunki u davlatga bu dunyoda ezgulik rasm mini bunyod qildi).

Mazkur qit'aning birinchi misralarning boshidag'i harflarni jam' qilinsa, Ali hosil bo'lur, ikkinchi misralarning oldidag'i harflarni jam' qilinsa, sher hosil bo'lur. Birinchi misralarning hashvidag'i so'zlarni jam' qilinsa, quyidag'i misra hosil bo'lur:

Ilohiy bidorash ba fazilat.

(Ilohiy, uni fazlingda tut).

Ikkinci misralarning hashvidag'i so'zlarni jam' qilinsa, quyidag'i ikkinchi misra hosil bo'lur:

Hamesha ba izzu ba davlat

(Hamisha quadrat-u davlatda).

Agar so'zlarni misra va baytlarning tartibi bila jam' qilsalar, ushbu bayt hosil bo'lur:

Ilohiy hamesha bidorash

Ba izzu ba fazilat ba davlat.¹

(Ilohiy, hamisha tut ani

Qudrat-u fazlingda, davlatda).²

Olim mazkur san'at borasidagi mulohazalarini davom ettirib, uni qasidada qit'a shaklida qo'llanishini ta'kidlaydi va bu san'atni o'z ichiga olgan eng yaxshi qasida sifatida Xoja Savojiyning "Qasidai masnu" asarini e'tirof etadi. Shuningdek, "Tavshih lug'atta vishoh, ya'ni bo'yunbog'ni birovning bo'y-nig'a ilmaktur. She'rg'a harf yoki so'zlarni kiritmak anga o'xshag'an uchun bu ma'noda anga tavshih deb nom qo'yupturlar", deb uning lug'aviy ma'nosini ham keltiradi.³ Shuningdek, olim tavshihga oid fikrlarini ilmi bade'ga doir asarlar yaratgan olimlar: Rashididin Vatvot va Shams Qays Roziyalarning bu san'at borasidagi mulohazalari bilan to'ldiradi. Tavshih san'ati asosida yaratilgan she'rning muvashshah deyilishi haqidagi bunday mulohazalar keyingi davr adabiyotshunoslari A.Hojiajmedov, D.Quronovlar tomonidan ham ta'kidlanadi.⁴

XV asrda Mavlono Kotibiy, Mavlono Ali Sheroyi kabi Hirot adabiy muhitining yetakchi shoirlarining yaratgan katta-kichik qasidalari ham muvashshah shaklida yozilgani ma'lum. Ayniqsa, Xoja Salmon Savojiyning "Qasidayi Masnu" nomli o'ta murakkab, bir necha bahr, turli-tuman she'riy san'atlar qo'llanilgan muvashshah tariqida yozilgan asari shuhrat qozongan.⁵ Bundan ma'lum bo'ladiki, XV asrda ijod ahli orasida nafaqat muammonavislik, balki muvashshahchilik ham keng rivojlangan.

Muvashshahning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiyning yozishicha, muvashshah, uning shakli va muayyan tartibda tuzilishi borasidagi fikrlar X asrda Ispaniyada yashab ijod etgan shoir Muqaddam ibn Mu'afa al-Kabriy qalamiga mansub.⁶ O'zbek adabiyotida esa muvashshahlarning dastlabki namunalari qachon yaratilgani hozircha ma'lum emas, lekin XVIII–XIX asrlarda ijod ahli orasida bu san'at ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, XIX asrda muvashshahchilik an'anasi shu darajada ommalashganki, hatto shoirlilik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorati bilan o'lchangani manbalarda ta'kidlanadi.⁷

XV asr she'riyatida muvashshahning misralar ichida qizil siyoh bilan ajratib yozilgan so'zlarni jamlanganda bir yoki bir necha bayt she'r paydo bo'ladigan turidan keng foydalanilgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari adabiyotida esa ko'proq har bir misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan nom kelib chiqadigan turidan foydalanilgan. Bu davr she'riyatida muvashshah shaklida yozilgan qasidalarni uchratmaymiz. Muvashshahlar, asosan, g'azal, muxammas, murabba' kabi janrlarda yaratilgan. Feruz, Kamiy, Miskin, Haziniy, Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Zoriy, Qoriy, Furqat kabi ulug' shoirlar muvashshahchilikda shuhrat qozonishgan.

Muvashshahlar, asosan, ishqiy mavzuda yaratilgan. Garchi ularda ma'shuqaning ta'rif-u tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo'ladi. Shuning uchun ham "...muwashshah kimning ismiga bog'langan

¹ Atoulloh Husayniy. O'sha asar. 85-bet.

² Atoulloh Husayniy. O'sha asar. 320-bet.

³ Atoulloh Husayniy. O'sha asar. 87-bet.

⁴ Hojiajmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent, "Sharq", 1999, 62-bet; Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, "Akademnashr", 2010, 298-bet.

⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13-tom, Majolis un-nafois. T., "Fan", 1997, 221-bet.

⁶ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент, "Ўзбекистон", 1997, 284-бет.

⁷ Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchchi tom. Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1973, 91 – 92-betlar.

bo‘lsa, o‘sha g‘azalda ta’rif etilgan obraz ham aynan mazkur kishining o‘zidir deb o‘ylash xatodir, deb yozadi M.Shayxzoda Furqat muvashshahlari munosabati bilan yozgan maqolasida, – muvashshahdagi ism bu g‘azalning kimga bag‘ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo‘lishi mumkin. Masalan, Furqatning “Maqsudjon” ismiga bag‘ishlangan g‘azalida ...sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi “Maqsudjon” emas, balki go‘zal bir ayoldir”.¹ Furqat muvashshahlari ha-qida aytigan bu mulohazalar boshqa ijodkorlar yaratgan muvashshahlarga ham taalluqli. Muqimiyning Jamolxon nomiga bag‘ishlangan muvashshah g‘azalidan olingan quyidagi satrlar buni tasdiqlaydi:

*Jumlayi Ho ‘qand mavzun qadlarini sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.
Mahv o ‘lub mardum xiromini ko ‘rub bozor aro,
Deydilar ba ’zi “malak”, ba ’zi “bashar”, ba ’zi “pari”.*²

Kundek ravshanki, g‘azalda ta’rif-tavsif qilingan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari bo‘lgan, ko‘rganlar “malak”mikan, “bashar”mikan, yo “pari”mikan, deb mahliyo bo‘lgan go‘zal, albatta, Jamol-xon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir go‘zal.

“Lekin Kamiy muvashshahlari misolida bu qonuniyatga zid holatni ham ko‘rish mumkin, deb yo-zadi adabiyotshunos O.Oltinbek toshkentlik shoir Kamiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida.³ – Mana shun-day muvashshahlardan biri “Abdulazizxon” nomiga yozilgan. Xo‘s, Abdulazizxon kim? Adabiyotshu-nosligimizda u haqdagi dastlabki ma’lumotni professor G‘.Karimovning “Muqimiyy” monografiyasidan olamiz: “Abdulazizxon Eski jo‘va tomondan, O‘zgand mahallalik. Abdulazizxon erkin fikrli, ma’rifat-parvar va san’at-adabiyotga havaskor shaxslardan edi. U shoir, olim va san’atkorlarga moddiy yordamda bo‘lgan. Uning uyi ilg‘or intilishlarga ega bo‘lgan Toshkent shoirlarining adabiy gurung markaziga ay-langan. Muqimiyning u kishi haqida “Xon akam” sarlavhali she‘r yozgani ma’lum”. Shoir Furqat esa o‘zining Istanbuldan turib yozgan mashhur “Sabog‘a xitob” she’riy maktubida ...Abdulazizxon nomini o‘zining yaqin do’stlari qatorida tilga oladi. Adabiyotshunos olim Sh.Yusupov bu kishining to‘la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o‘g‘li ekanini aytadi va “o‘zi uchrashgan, hamsuhbat bo‘lgan ajoyib zot-lar” haqida bir emas, to‘rtta kitob tasnif etgani haqida ma’lumot beradi ... O‘zidan 10–11 yosh katta bo‘lgan bir zamondoshini “saodat maob”, “janobi oliv”, “sayyidim” deb atashi shoirning Abdulazizxon shax-siga hurmat-u ixlosini anglatadi:

*Abdulazizxoni saodat, maobgo,
Ma’zuri ojizona yetur bandin, ey sabo.
Boshingni ostoniga qo ‘y avvalo borub,
Yuz-u ko ‘zing surub daru devor-u qasrig ‘o...
Yorab, Kamiy qulingni duosin ijobat et,
Ul sayyidim haqina ba e’zozi Mustafo.*

Noma tarzida yozilgan ushbu muvashshahdan ko‘rinadiki, undagi barcha ta’rif-u tavsiflar Abdulazizzonga tegishli. Muvashshah esa, yuqorida aytganimizdek, shu shaxs nomiga yozilgan. Demak, ma’lum bo‘ladiki, ba’zan muvashshahdagi vASF o‘sha muvashshah kimning nomiga yozilgan bo‘lsa, shu nom egasiga tegishli bo‘lishi ham mumkin ekan”.⁴

Shuningdek, bir shaxs nomiga bir necha shoirlar tomonidan muvashshahlar yozilgani ham ma’lum. Masalan, Jamolxon, Normuhammad, Rashidxon nomlariga Furqat ham, Muqimiyy ham muvashshah g‘a-zal yozganliklaridan ko‘rinadiki, shoirlarning bu shaxslar bilan o‘zaro yaqin aloqalari bo‘lgan.⁵ Toshkent adabiy muhiti vakillaridan yana biri Mulla Qo‘shoq Miskin muvashshahlarini o‘rgangan adabiyotshunos Sh.B.Nuriddinov Miskinning Yusufxon, Xolmuhammadxon, Ziyovuddinxon, Alixon, Omilxon singari zamondoshlari nomiga bitilgan muvashshah g‘azallarida nomlari zikr etilgan kishilar ismiga u bilan bir davrda yashab ijod qilgan yana qator shoirlar ham muvashshah bog‘laganlarini ta’kidlaydi. Xususan, Kamiyning Xolmuhammadxon, Alixon, Mirzo Shoshiyning Alixon, Xislatning Yusufxon, Alixon kabilar-ning nomlariga muvashshah bog‘laganlaridan ismlari muvashshah qilingan kishilarining Miskin va uning

¹Shayxzoda M. O‘sha asar. 92-bet.

² Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiyy. Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar. T., “Muharrir”, 2019, 20-bet.

³Oltinbek O. Karimbek Kamiy – milliy uyg‘onish shoiri. Toshkent, “Muharrir”, 2018, 2003, 87-bet.

⁴ Oltinbek O. O‘sha asar. 87 – 88-betlar.

⁵ Pardayev Q. Muqimiyy she’riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. Toshkent, “Muharrir”, 2019, 174-bet.

ijodiy davrsasi uchun yaqin shaxslar bo‘lgani haqidagi xulosaga olib keladi.¹ Shuningdek, Miskin ijodida-
gi:

Husningni, ey parivash, e’lon etaymu etmay?

Yo dil uyida saqlab, pinhon etaymu etmay? –

bayti bilan boshlanuvchi g‘azal Kamiyning Husaynbek ismiga muvashshah qilingan “Husningni, ey parivash, e’lon etaymu etmay?” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga tazmin qilingan. E’tiborlisi, Mis-
kinning bu g‘azali Xolmuhammadxon ismiga muvashshah ham. Demak, Miskin nafaqat g‘azalga tazmin
bog‘lagan, balki asos bo‘lgan g‘azalidagi badiiy unsurni ham saqlagan.²

Xullas, muvashshahlarni o‘rganish shoirlar adabiy-estetik olamini o‘rganishda muhim ahamiyatga
ega. Shunday ekan, ularni ilmiy asosda o‘rganish adabiyot tarixining qorong‘i jihatlarini yoritishda muay-
yan darajada xizmat qiladi.

**Atajanova Nilufar Fayzullayevna (UrDU tayanch doktoranti)
XORAZMLIK SHOIRALAR IJODIDAGI BA’ZI FOLKLOR AN’ANALARI XUSUSIDA**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorazmlik shoiralarning ijodida xalq og‘zaki ijodi namunalarini-
ning qo‘llanilishi xususida so‘z boradi. Xususan, xorazmlik shoiralar U.Otayeva, G.Ibodullayeva, G.Begim,
Sh.Shamsarning folklorizm unsurlaridan foydalanish mahorati tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье речь идет об использовании образцов народной поэзии в
творчестве хорезмских поэтов. В частности, в поэзии У.Отаева, Г.Ибодуллаева, Г.Бегим, Ш.
Шамса, анализируется умение использовать фольклорные элементы.

Annotation. In the article, the speech goes on about the use of examples of folk art in the works of
Khorezm poets. In particular, the ability of Khorezmian poets as U.Otayeva, G.Ibodullayeva, G.Begim,
Sh.Shams in using folklore elements is analyzed.

Kalit so‘zlar: folklor, qo‘sinq, yor-yor, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, ertak, urf-odat, afsonaviy
obraz, badiiy obraz.

Ключевые слова: фольклор, песня, йор-йор, пословица, мудрые слова, сказка, традиция, ле-
gendarnyj obraz, художественный образ.

Key words: folklore, song, yor yor, proverb, saying, wise words, fairy-tale, tradition, legendary
image, artistic image.

So‘z san’atining in’ikosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi har bir davrda insoniyat hayotining doimiy
hamrohi, eng faol, eng sodda va jo‘sinqin namunasi bo‘lib kelgan. U ilg‘or badiiy g‘oyalarni tashuvchi,
umrboqiy asarlarni, o‘lmas badiiy timsollarni yaratgan insoniyatga teran mazmunli noyob xazinalarni taq-
dim qilgan. Xalq og‘zaki ijodining o‘lmas durdonalari butun kelajak avlodning ong va shuurini, fikr-mu-
lohasini o‘stirishda, ularning estetik zavqi, ruhiy olami va ma’naviy dunyosini boyitishda, mukammal-
lashtirishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodi har bir davrning o‘ziga xos ijod sarchasmasi hisoblangan. Shu sababli ham alla,
qo‘sinq, afson-a-yu rivoyat, ertak va dostonlarda, shuningdek, maqollarda ham insoniyatning yuksak orzu-
o‘ylari, zavq-shavqi, intilish-kurashlari ifoda qilingan. Folklor namunalari o‘zining mazmunan rang-ba-
rangligi, yuksak adabiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalqning turmush tarzi, faoliyati, umuman, xalq ha-
yatining barcha jihatlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham niroyatda diqqatga sazovordir.

Adabiyotshunos U.Hamdam qayd etganlaridek, “Folklor an’analari va elenemtlarini san’atkor o‘z
ijodiy laboratoriyasida qay darajada ishlab, xalq uchun ahamiyatli xalqchil asarlar yaratib, kishilarni egzu
insoniy tuyg‘ular bilan tarbiyalashga o‘zining munosib hissasini ko‘rsatib berish – folklor va yozma ada-
biyot aloqalarini o‘rganishning asosini tashkil etmog‘i lozim”.³

Darhaqiqat, necha ming yillik xalq og‘zaki ijodiyotimiz ifodalangan zamonaviy o‘zbek adabiyoti
namunlarida millatimiz o‘zligi, xalqimizning qiyofasi, dunyoqarashi, orzu-o‘ylari, kurash-intilishlari va
yangi davr o‘zgarishlariga munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, xorazmlik shoiralar U.
Otayeva, G.Ibodullayeva, Sh.Shamsarning she’rlaridagi folklorizm unsurlarini tahlil qilish, shuningdek,
ijodkorlarning mazkur unsurlardan foydalanish mahoratini tadqiq qilishni maqsad qildik. Bu esa, birinchi-

¹ Nuriddinov Sh.B. Mulla Qo‘squoq Miskin hayoti va uning adabiy merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy daraja-
sini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, Toshkent, 2011, 72 bet.

²Nuriddinov Sh.B. O’sha asar. 73-bet.

³ Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. Toshkent, “Fan”, 2007, 139-bet.

Xayitov Bahodir. Matematika o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	91
Jumaniyozova Muhabbat Xo‘sinoyna. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar nutqini o‘stirishda qayta hikoya-lashdan foydalanishning metodik jihatlari.....	94
Raximova Shoira. Matematik ertaklarni o‘rganish orqali boshlang‘ich sinf matematika darslarining integ-ratsiyalashuvি.....	97
Xasanova Xurshida. Kimyo fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishda steam yondashuvidan foydal-anish.....	100
Нуруллоев Фируз. Бўлажак информатика ўқитувчиларининг касбий-методик тайёргарлигини тако-миллаштиришда илмий ижоддан фойдаланиш.....	103
Mamatqulov Xurshid Abdurashidovich, Abdullaeva Dilbar Alimbaevna. Xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kom-petentlikni rivojlantirishning axborot-metodik tizimi.....	108
Джураев Акмал Рazzokovich, Шадыева Нигора Шариповна. Совершенствование электронного про-граммного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам.....	111
Eshankulova Nargiza Hayitmuratovna, Sharipova Arofat. Applying Authentic Materials for Developing Intercultural Communicative Competence in Teaching.....	115
Arslonbekovna Rano. Cooperative Writing through Google Docs.....	118

ILMIY AXBOROT

Исмоилова Нодирабегим Усмонжон қизи. Ўхшатиш амалиётининг заруратига доир.....	121
Bekchanov Shukurla Kurbanbayevich. O‘zbek tili matнlarida nomuhim so‘zlarni aniqlash metodlari.....	126
Содикова Шохидা Марҳабаевна, Эрийгитова Лобар Қодировна. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти доирасида таълим ва маданият соҳасидаги мулоқот.....	131
Қдырбаева Гулзира Курбанбаевна. Маданият ва тил муносабатларининг олам мифологик манзара-сидаги воқелантирувчилари.....	133
Babayeva Maya Amangeldiyevna. Turkman tilidagi o‘zlashma so‘zlearning etimologik va semantik xususi-yatlari.....	138
Рўзиев Яраш Бозорович. Рус тилида кўчирма ва ўзлаштирма нутқ.....	141
Mayliyeva Gulmira Bahramovna. Ingliz tilida sifatning semantik-funksional xususiyatlari.....	145
Усенова Қизларгул Убайдуллаевна. Қорақалпоқ тилидаги этнографизмларнинг айrim лексик-се-мантиқ турлари хақида.....	147
Muydinova Arofatoy Urinovna. Muvashshahning tarixiy ildizlariga doir ba’zi mulohazalar.....	149
Atajanova Nilufar Fayzullayevna. Xorazmlik shoiralalar ijodidagi ba’zi folklor an’analari xususida.....	153
Sulaymanova Dilnoza Xamzayevna. Uilyam Vordsvord she’riyatida ishq va tabiat mavzusi talqini.....	158
Абдурахмонова Ҳилола Рахматуллаевна. Ўзбек ва рус тиллари мақоллари қиёсий таҳлили.....	162
Alimov Ulug‘bek. An’anaviy ta’limda kompyuterda vizuallaştirish didaktik tamoyillarni amalga oshirish-ing metodik tahlili.....	166
Xayrullayev Dilshod Baxritdinovich. Axborot va kompyuter texnologiyalari asosida talabalarni boshqarish metodikasini takomillashtirish.....	169
Суннатов Нурали Бекмуродович. Таълим инновацион ўзгартиришда назария ва амалиёт мезонла-ри.....	173
Тохирова Шахноза. Слово как центральное звено в системе языка.....	176
Сапаева Хилола, Довлетов Шукурулла. Прагматические свойства заимствованной лексики на материале романа с.минаева “Духless”.....	179
Искандарова Нодира Бахрамбековна. Интерпретация восточной темы в теоретических трудах не-мецких и русских ученых.....	182
Сентова Зухрахон Пиржановна. Вопросы самоидентификации женщин в социологическом изме-рении.....	185
Matlatipov Sanatbek G‘ayratovich, Rajabov Jaloliddin Shamsuddin o‘g‘li. Subjectivity Detection for Uzbek Language Sentences.....	190
Jumamuratova Ramiza Adilmuratovna, Urazimbetova Gozzal Karamatdinovna. The Art and Problems of Poetic Translation.....	194